

**PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.05/29.12.2023.Ped.48.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**URALOV SIROJIDDIN AXMADALIYEVICH**

**PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASASIDA ISHLAB CHIQRISH  
TA'LIMI USTALARINING KASBIY-PEDAGOGIK  
KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH**

**13.00.05 – Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI  
(PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)  
on pedagogical sciences**

**Uralov Sirojiddin Axmadaliyevich**

Professional ta’lim muassasasida ishlab chiqarish ta’limi ustalarining kasbiy-  
pedagogik kompetentligini rivojlantirish..... 3

**Уралов Сирожиддин Ахмадалиевич**

Развитие профессионально-педагогической компетентности мастеров  
производственного обучения в профессиональном образовательном  
учреждении..... 24

**Uralov Sirojiddin Axmadaliyevich**

Development of professional-pedagogical competency of masters of production  
training in a professional educational institution..... 47

**E’lon qilingan ishlar ro‘uxati**

**Список опубликованных работ**

**List of published works..... 51**

**PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.05/29.12.2023.Ped.48.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**URALOV SIROJIDDIN AXMADALIEVICH**

**PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASASIDA  
ISHLAB CHIQRISH TA'LIMI USTALARINING  
KASBIY-PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH**

**13.00.05 – Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Ped4257-raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Professional ta'limni rivojlantirish institutida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb sahifasida (www.ipitvet.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Xudayberdiyev Zayniddin Yavkachevich**  
iqtisod fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Turakulov Olim Xolbutayevich**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**G'affarov Feruz Hasanovich**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Jizzax politexnika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Professional ta'limni rivojlantirish instituti <sup>000</sup>huzuridagi DSc.05/29.12.2023.Ped.48.01-raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 21.02 soat 10.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Chimboy-2 ko'chasi, 96-uy. Tel.: 246-92-17; faks: 246-90-37, e-mail: pedagogicinновatsiyalar@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Professional ta'limni rivojlantirish instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (117-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Chimboy-2 ko'chasi, 96-uy. Tel.: 246-92-17; faks: 246-90-37).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 07.02 kuni tarqatildi.  
(2025-yil 07.02 dagi № 21 raqamli reestr bayonnomasi)



**R.X.Djurayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, p.f.d, akademik

**S.Yu.Ashurova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
kотиb, p.f.d (DSc) professor

**X.Sh.Kadirov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
huzuridagi ilmiy seminar raisi, p.f.d  
(DSc) professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda sanoat ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanib borishi barobarida zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ishlay oladigan malakali mutaxassislarni tayyorlashga yuqori talablarni qo'yimoqda. Xususan, professional ta'limning asosiy ishtirokchisi bo'lgan ishlab chiqarish ta'limi ustalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish talab etilmoqda. YUNESKONing Berlin deklaratsiyasi<sup>1</sup> va "Ta'lim-2030" xalqaro harakat dasturida<sup>2</sup> kasbiy ta'lim sohasidagi pedagog kadrlarning rivojlanishini ta'lim sifatini oshirish, ta'lim sifati va uzluksiz kasbiy rivojlanishning o'zaro bog'liqligi alohida ta'kidlanadi. Bu dasturda professional ta'lim muassasalari ustalarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish qobiliyatini rivojlantirish, innovatsion pedagogik yondashuvlarni o'zlashtirish va amaliy tajribalarni boyitish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, ushbu hujjatda ishlab chiqarish ta'limi ustalarining kompetentligini oshirish mehnat bozorida raqobatbardoshlikni ta'minlash va zamonaviy talablarga mos kadrlar tayyorlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekani qayd etilgan.

Dunyo miqyosida kasbiy ta'lim tashkilotlari ishlab chiqarish ta'limi ustalarining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar zamonaviy ta'lim talablari va mehnat bozori ehtiyojlari asosida shakllanmoqda. Bu tadqiqotlar ustalarning pedagogik salohiyatini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ta'lim jarayonida nazariy hamda amaliy bilimlarni uyg'unlashtirishga qaratilgan. Jumladan, Garvard oliy ta'lim maktabi (Harvard Graduate School of Education)<sup>3</sup> nufuzli muassasa sifatida kasb-hunar maktablari o'qituvchilari va ishlab chiqarish ta'limi ustalarining malakasini oshirish bilan bog'liq tadqiqotlar bilan shug'ullanadi. Stenford Oliy ta'lim maktabi (Stanford Graduate School of Education)<sup>4</sup> professional ta'limda o'qitish va o'rganishga innovatsion yondashuvlarni tadqiq qilish hamda o'qituvchilar uchun kasbiy rivojlanish bo'yicha tadqiqotlarga yo'naltirilgan taniqli ta'lim maktabi mavjud. Kolumbiya Universiteti o'qituvchilar kolleji (Teachers college, Columbia University)<sup>5</sup> professional ta'lim sohasidagi kuchli dasturlari bilan tanilgan bo'lib, professional ta'limning turli jihatlari, jumladan, ishlab chiqarish ta'limi ustalari uchun kasbiy rivojlanish bo'yicha tadqiqotlar olib boradi. Umuman olganda, bu tadqiqotlar ustalarning kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish orqali ta'lim sifatini oshirish va zamonaviy mehnat bozori talablariga javob beradigan mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan. Ta'lim jarayonining uzluksizligi,

---

<sup>1</sup> Reimagining our futures together: a new social contract for education. International Commission on the Futures of Education. <https://doi.org/10.54675/ASRB4722>. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000379707.locale=en>.

<sup>2</sup> Incheon declaration: education 2030 - towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (English). Washington, D.C.: World Bank Group. <http://documents.worldbank.org/curated/en/167341467987876458/Incheon-declaration-education-2030-towards-inclusive-and-equitable-quality-education-and-lifelong-learning-for-all>

<sup>3</sup> "Harvard education publishing group". Archived from the original on 26 April 2013. Retrieved 2 May 2013.

<sup>4</sup> "Stanford teacher education program (STEP)". Stanford Graduate School of education: master's programs. Retrieved 15 June 2023.

<sup>5</sup> "What is the relationship between teacher's college and Columbia University? On Vimeo". Vimeo.com. January 1, 2013. Retrieved March 18, 2017.

innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish bu boradagi asosiy tadqiqot yo'nalishlari sifatida qayd etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 15-maydagi 287-son "O'zbekiston Respublikasida kasbiy malakalar, bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish choralari to'g'risida"gi qarori, 2021-yil 26-fevraldagi 106-sonli "Professional ta'lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Respublikamizda professional ta'lim tizimida ishlab chiqarish ta'limini rivojlantirish va ishlab chiqarish ta'limi ustalarining faoliyati samaradorligini oshirish hamda ularni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishga oid tadqiqot ishlari respublikamiz olimlaridan R.X.Djurayev, A.R.Xodjaboyev, N.A.Muslimov, Q.T.Olimov, S.Yu.Ashurova, O.A.Abduquddusov, F.N.Abdunazarova, B.A.Nuriddinov, Sh.U.Qosimov, I.A.Otabayev, O.B.Sarmonov va boshqalar tomonidan olib borilgan. MDH olimlaridan V.A.Skakun, G.I.Kruglikov, B.I.Adaskin, G.N.Jukov, V.V.Kuznesov, Yu.A.Yakuba, N.I.Tamarin, M.S.Shafarenko va boshqalarning tadqiqotlari ishlab chiqarish ta'limi ustalari faoliyatini tadqiq etishga bag'ishlangan.

Pedagoglarning kasbiy, kasbiy-pedagogik kompetensiyalari va kompetentligi muammosi R.X.Djurayev, N.A.Muslimov, O.A.Abduquddusov, X.F.Rashidov, D.O.Ximmataliyev, O.A.Quysinov, Z.T.Raximov, X.Sh.Kadirov, M.T.Mirsoliyeva, N.N.Karimova va K.T.Umataliyevalar, MDH olimlaridan S.Ye.Shishov, V.A.Kalneyr, A.Andreyev, O.E.Lebedev, V.N.Vvedenskiy, V.A.Bolotov, V.V.Serikov, V.D.Shadrikov, M.N.Boritko, G.K.Selevko, A.I.Troiskaya, A.N.Petrov, T.N.Gushina, T.Ye.Kocheryan va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

Professional ta'lim muassasasida ishlab chiqarish ta'limi ustalarining kasbiy va kasbiy-pedagogik kompetentligini oshirish, rivojlantirish va takomillashtirish masalalari bo'yicha O.B.Sarmonov, MDH olimlaridan V.V.Litvinenko, I.A.Degtyareva, V.V.Evdokimov, A.K.Karelskaya, I.I.Sokolova, A.P.Torbeeyeva, Z.A.Bogomaz, xorij olimlaridan E.Hoffer, D.Bok, V.Gaymen, I.Zyazun, A.Ya.Nayn, V.A.Kan-Kalik, R.Deyvom, J.Genri tomonidan o'rganilgan.

Yuqoridagi keltirilgan olimlarning ilmiy tadqiqotlari tahlillari shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda professional ta'lim muassasasida ishlab chiqarish ta'limi ustalarining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish bo'yicha muammolar yetarli darajada o'rganilmagan va bu esa, o'z navbatida, tadqiqot ishimizning dolzarbligini belgilab beradi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqot ishi Professional ta'limni rivojlantirish instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining IL-432105785 "Energiya jihatidan samarador texnologiyalarni joriy qilish sharoitida qurilish tarmog'i uchun malakali kadrlarni ijtimoiy sheriklik asosida tayyorlashning ilmiy asoslarini ishlab chiqish" (2021-2023-yy.) mavzusidagi xalqaro ilmiy loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** professional ta'lim muassasasida ishlab chiqarish ta'limi ustalarining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

professional ta'lim tizimida ishlab chiqarish ta'limi ustalarining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlarini takomillashtirish;

ishlab chiqarish ta'limi ustalarining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish modelini takomillashtirish;

professional ta'lim muassasasida ishlab chiqarish ta'limi ustalarining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish;

professional ta'lim muassasasida ishlab chiqarish ta'limi ustalarini masofaviy platforma yordamida o'qitish tizimini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida professional ta'lim muassasasida ishlab chiqarish ta'limi ustalarining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish jarayoni belgilangan.

**Tadqiqotning predmetini** professional ta'lim muassasasida ishlab chiqarish ta'limi ustalarining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari, mazmuni, metodlari, shakli va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda psixologik-pedagogik, o'quv-metodik manbalar tahlili; kasb standartlari, malaka talablari, o'quv rejalari va dasturlarini o'rganish va tahlil qilish; modellashtirish (loyihalash); pedagogik-ijtimoiy (kuzatish, suhbat, so'rovnoma, test); pedagogik tajriba-sinov ishlarini o'tkazish, natijalarni matematik va statistik qayta ishlash usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

professional ta'lim tizimida ishlab chiqarish ta'limi ustalarining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari kasbiy faoliyatli axborot ta'lim muhitini yaratish, ishlab chiqarish ta'limi ustalarining kasbiy-pedagogik kompetentligi tarkibiy komponentlarini (maxsus-texnologik, shaxsiy-motivatsion, tashkiliy, metodik, raqamli, ijtimoiy-psixologik) aniqlash asosida takomillashtirilgan;

ishlab chiqarish ta'limi ustalarining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirishning axborotli, rivojlanuvchi, innovatsion funksiyalarni bajaruvchi

modeli akmeologik, murakkablashtirish, ijtimoiy, fasilitatsiya, kreativlik tamoyillari hamda professional ta'lim muassasasi sharoitida ishlab chiqarish ta'limi ustasining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish jarayonining tashkiliy va metodik ta'minoti asosida takomillashtirilgan;

professional ta'lim muassasasida ishlab chiqarish ta'limi ustalarining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish metodikasi Loyiha, Flipped Classroom, Zone of Proximal Development hamda "Masters method" metodlar jamlanmasi asosida takomillashtirilgan;

professional ta'lim muassasasida ishlab chiqarish ta'limi ustalarining masofaviy platforma yordamida o'qitish tizimi individual, faoliyatga yo'naltirilgan, tizimli-faoliyatli, kompetentli yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

professional ta'lim muassasasi ishlab chiqarish ta'limi ustalarining kasbiy faoliyatida foydalanishlari uchun "Ishlab chiqarish ta'limi ustalarining maxsus-texnologik kompetentligini rivojlantirish" nomli uslubiy qo'llanma tayyorlangan. Ushbu uslubiy qo'llanma Professional ta'limni rivojlantirish institutining 2022-yil 23-sentyabrdagi 12-sonli Ilmiy-pedagogik kengashi yig'ilishida nashrga tavsiya etilgan;

professional ta'lim muassasasida ishlab chiqarish ta'limi ustalari uchun "Professional ta'lim muassasasida ishlab chiqarish ta'limi ustalarining kasbiy-pedagogik kompetentligini takomillashtirish" nomli uslubiy qo'llanma tayyorlangan va Professional ta'limni rivojlantirish institutining 2023-yil 26-maydagi 5-sonli Ilmiy-pedagogik kengashi yig'ilishida nashrga tavsiya etilgan;

professional ta'lim tizimi Bosh ustalari malakasini oshirish kurslari uchun "Ishlab chiqarish ta'limi ustalarining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish" nomli o'quv qo'llanmasi tayyorlangan. Ushbu o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-sentyabrdagi 438-son buyrug'iga asosan nashrga tavsiya etilgan (120355-raqamli nashr ruxsatnomasi);

ishlab chiqarish ta'limi ustalari uchun "Professional ta'lim muassasasida ishlab chiqarish ta'limi ustalarini kompetentligini rivojlantirish dasturi" nomli mobil ilovasi ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligining 2022-yil 14-dekabrda № DGU 00847-raqamli mualliflik guvohnomasi olingan;

ishlab chiqarish ta'limi ustalari uchun "Ishlab chiqarish ta'limi ustalarining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish" nomli yangi avlod elektron platformasi ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligining 2023-yil 7-noyabrdagi № DGU 08886-raqamli mualliflik guvohnomasi olingan;

"Pindocs" va "Rolli o'rin" metodlarini o'z ichiga olgan "Masters method" metodlar jamlanmasi ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk markazining 2023-yil 6-oktyabrdagi № 006733-raqamli mualliflik guvohnomasi olingan;

professional ta'lim muassasasida ishlab chiqarish ta'limi ustalarining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirishda ichki o'qitish tizimining ilmiy-nazariy asoslari, pedagogik shart-sharoitlari, kasbiy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirish mazmuni, kognitiv, motivatsion, refleksiv va faoliyatli komponentlari takomillashtirilgan va tajriba-sinov ishlarida uning samarali ekanligi olingan natijalarda asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarinnning ilmiy ahamiyati professional ta'lim muassasasi sharoitida ishlab chiqarish ta'limi ustalarining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari takomillashtirilganligi, professional ta'lim muassasasida ishlab chiqarish ta'limi ustalarining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirishning tashkiliy va metodik ta'minoti tarkibiy qismlari aniqlanganligi, professional ta'lim muassasasida ishlab chiqarish ta'limi ustalarining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish modeli takomillashtirilganligi hamda zamonaviy metodlar yordamida ishlab chiqarish ta'limi ustalarining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish metodikasi ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati professional ta'lim muassasasida ishlab chiqarish ta'limi ustalarining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish jarayonlarida ichki o'qitish tizimining tashkiliy-didaktik hamda o'quv-metodik ta'minotini yaratilganligi, ishlab chiqarish ta'limi ustalarini ish joyida masofaviy platforma yordamida o'qitish tizimi ishlab chiqilganligi va amaliyotga tatbiq etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Professional ta'lim muassasasida ishlab chiqarish ta'limi ustalarining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari asosida:

kasbiy faoliyatli axborot ta'lim muhitida professional ta'lim tizimida ishlab chiqarish ta'limi ustalarining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy didaktik shart-sharoitlariga oid taklif va tavsiyalari "Ishlab chiqarish ta'limi ustalarining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish" nomli o'quv qo'llanmasi mazmuniga sungdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-sentyabrdagi 438-son buyrug'i, 120355-raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, professional ta'lim muassasalarida ishlab chiqarish ta'limi ustalarining kasbiy-pedagogik kompetentligini samarali rivojlantirishning ijobiy ta'lim muhiti yaratilgan;

ishlab chiqarish ta'limi ustalarining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirishning axborotli, rivojlanuvchi, innovatsion funksiyalarni bajaruvchi modelga va professional ta'lim muassasasida ishlab chiqarish ta'limi ustalarining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga

oid taklif va tavsiyalari “Ishlab chiqarish ta’limi ustalarining maxsus-texnologik kompetentligini rivojlantirish” (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 15-oktyabrdagi 4/17-4/2-1813-sonli ma’lumotnomasi) va “Professional ta’lim muassasasida ishlab chiqarish ta’limi ustalarining kasbiy-pedagogik kompetentligini takomillashtirish” (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 15-oktyabrdagi 4/17-4/2-1813-sonli ma’lumotnomasi) nomli didaktik ta’minot mazmuniga singdirilgan. Natijada, professional ta’lim muassasasida ishlab chiqarish ta’limi ustalarining kasbiy-pedagogik kompetentligini samarali rivojlantirishga erishilgan;

professional ta’lim muassasasida ishlab chiqarish ta’limi ustalarining masofaviy platforma yordamida o’qitish tizimi metodikasiga oid taklif va tavsiyalari “Professional ta’lim muassasasida ishlab chiqarish ta’limi ustalarini kompetentligini rivojlantirish dasturi” nomli mobil ilovasini va “Ishlab chiqarish ta’limi ustalarining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish” nomli yangi avlod elektron platformasini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 15-oktyabrdagi 4/17-4/2-1813-sonli ma’lumotnomasi). Natijada professional ta’lim muassasalarida ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ishlab chiqarish ta’limi ustalarining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirishning o’quv-metodik ta’minoti va axborot texnologiyalariga asoslangan metodik tizimi yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 10 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o’tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo’yicha jami 30 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O’zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, jumladan, 7 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan. 1 ta o’quv qo’llanma, 3 ta uslubiy qo’llanma, 2 ta yaratilgan dasturiy mahsulot va 1 ta metodlar jamlanmasi ishlanmasiga mualliflik guvohnomalari olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning matni 152 sahifani tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida tadqiqot ishining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, muammoning o’rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obykti va predmetlari belgilangan, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo’nalishlariga muvofiqligi ko’rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, amalda joriy etilishi, e’lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo’yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Professional talim muassasasida ishlab chiqarish ta’limi ustalarining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida “Ishlab chiqarish ta’limi ustasi”ning faoliyati tahlili, professional ta’lim muassasasida kasbiy-

pedagogik vazifalarini amalga oshirishdagi pedagogik muammo va qiyinchiliklari, ishlab chiqarish ta'limi ustalarining kasbiy-pedagogik kompetensiyalari va ularni rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari, ulardan kasbiy faoliyatda foydalanish zarurati, ishlab chiqarish ta'limi ustalarini kasbiy-pedagogik rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari hamda professional ta'lim muassasasida kasbiy rivojlantirishning dolzarbligi asoslab berilgan.

Mamlakatimizda iqtisodiyotning rivojlanish istiqbollari va ustuvor vazifalariga, iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari uchun zarur mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash hamda mehnat bozorining kadrlarga bo'lgan real ehtiyojini ish beruvchi korxonalarining takliflariga muvofiq, uzluksiz ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish va yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta'lim xizmatlarining ochiqligi va sifati masalalariga alohida e'tibor qaratish maqsadida ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida professional ta'lim tizimi isloh qilinmoqda.

Rivojlanib borayotgan davlat, jamiyat va ishlab chiqarish bilan professional ta'limning parallel ravishda rivojlanishi boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'limga ega mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish tizimiga an'anaviy yondashuvlarga bir qator islohotlar kiritishni taqozo etadi.

Bugungi kunda mutaxassislarning yuqori darajadagi malakasi, kasbiy mahorati va kompetentlik darajasi – ularning ijtimoiy ta'minoti, kasbiy barqarorligi va rivojlanib borishining muhim omiliga aylanishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Professional ta'lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 26-fevraldagi 106-sonli qaroriga asosan zamonaviy ta'lim standartlari talablaridan kelib chiqqan holda professional ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan boshqaruv hamda pedagog kadrlarini ishdan ajralmagan holda qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida "Hayot davomida ta'lim olish" tamoyili asosida ishlab chiqarish ta'limi ustalarining kasbiy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan malaka oshirish shakllarini mustaqil tanlash va o'zlashtirish imkoniyatini yaratish vazifasi belgilab berildi.

Professional ta'lim tizimida ishlab chiqarish ta'limi ustasi ta'lim jarayonining asosiy ishtirokchisi bo'lib, u muayyan professional ta'lim muassasasida bo'lajak kasb egalarini tayyorlaydigan kasbning asosiy o'qituvchisi hisoblanadi.

Tadqiqotimiz jarayonida amalga oshirilgan tahlillar natijasida ishlab chiqarish ta'limi ustasiga berilgan quyidagi asosiy ta'riflarni ajratib oldik:

ishlab chiqarish ixtisosligi bo'yicha yuqori darajadagi mutaxassis;

texnologik jarayonlarni va operatsiyalarni mukammal biladi, murakkab texnik tizimlarni ishlatish va boshqarish bo'yicha tegishli kasbiy mahoratga ega;

ta'lim oluvchilarga bilganlarini mukammal o'rgatadi, mutaxassisligiga oid barcha texnologik operatsiyalarni bajarish ko'nikmalariga ega;

o'ziga biriktirilgan o'quv guruhi o'quvchilariga kasbiy bilimlar berib, muayyan kasb bo'yicha kasbiy ko'nikma va malakalarini rivojlantirib boradi,

amaliy jarayonlarda mehnat operatsiyalarini amalga oshirishning oqilona va samarali usullarini, o'quvchilar faoliyatini tashkil qilishning yangi shakllarini o'rgatadi, o'quv ustaxonadagi moddiy-texnika bazasi resurslaridan o'quv amaliyoti mashg'ulotlarida oqilona foydalanishni o'rgatadi;

usta o'quvchilar tomonidan mahsulot ishlab chiqarishda yuqori sifatni hamda ishlab chiqarish ustaxonalarida xavfsiz ish sharoitlarini ta'minlaydi, ishlab chiqarish mashg'ulotlari darslariga texnik va uslubiy tayyorgarlikni amalga oshiradi.

Ishlab chiqarish ta'limi ustalari kasbiy jihatdan o'z sohasini mohir ustasi bo'lishi, korxonada va tashkilotlarda muayyan sohada ishlab mehnat tajribasiga ega bo'lishi mumkin, lekin aksariyat ustalar kasbiy pedagogika va psixologiya, kasb-hunar metodikasi sirlaridan ta'lim jarayonida qo'llay olishga kasbiy ehtiyoj sezishadi. Ushbu ehtiyojlarni qondirish uchun malaka oshirishning turli shakllarini qo'llash va amalga oshirish zarur.

Yuqorida qayd etilgan zaruriyatlardan kelib chiqqan holda, tadqiqotimizda professional ta'lim muassasasi sharoitida ishlab chiqarish ta'limi ustalarining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish asosiy maqsad qilib belgilandi.

So'nggi yillarda ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilganligiga qaramasdan, professional ta'lim muassasasida faoliyat ko'rsatayotgan ishlab chiqarish ta'limi ustasining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish masalasi yetarlicha o'rganilmaganligini qayd etish mumkin.


Ishlab chiqarish ta'limi ustasining kasbiy-pedagogik kompetentligi – kasbiy faoliyati bilan bog'liq eng muhim kompetensiyalarga ega bo'lishi, o'quv-ishlab chiqarish faoliyatida duch keladigan turli pedagogik muammo va qiyinchiliklarni samarali hal qilishga imkon beradigan bilim, ko'nikma, malaka, qobiliyat va shaxsiy sifatlarning ajralmas to'plamidir. Bu o'rinda, ustalarning o'quv-ishlab chiqarish faoliyati deganda, o'quvchilar tomonidan zaruriy kasbiy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni egallaydigan, ijtimoiy ahamiyatga ega shaxsiy sifatlarni (tadbirkorlik, mustaqillik, mehnatsevarlik, mas'uliyat, vazifalarni hal qilishda ijodkorlik) shakllantiradigan faoliyatni tushunamiz.

Tadqiqotimizda qabul qilingan ishchi ta'rifga, asosan, ishlab chiqarish ta'limi ustasining kasbiy-pedagogik kompetentligi – bu professional ta'lim muassasalarida professional ta'lim dasturini amalga oshiradigan kasbiy va pedagogik faoliyatini mustaqil ravishda amalga oshirishni ta'minlaydigan shaxsning xususiyatlari yig'indisidan iboratdir.

Ishlab chiqarish ta'limi ustasining faoliyati juda murakkab jarayon hisoblanib, bir tapafdan u biriktirilgan guruhi tahsil oladigan kasbi bo'yicha kasbiy bilimga, ikkinchi tapafdan esa amaliyot jarayonlarini tashkil etish va o'quvchilarni boshqarish uchun pedagogik bilimlarga ega bo'lishligini taqozo etadi.

Ishlab chiqarish ta'limi ustasining kasb standarti, davlat ta'lim standarti, malaka talabi va lavozim vazifalari tahlili hamda professional ta'lim muassasasidagi kasbiy faoliyati mohiyatini hisobga olgan holda kasbiy-pedagogik kompetentlikning tarkibiy komponentlari maxsus-texnologik, shaxsiy-motivatsion,

tashkiliy, metodik, raqamli va ijtimoiy-psixologik kompetensiyalarni aniqladik (1-rasm).



**1-rasm. Ishlab chiqarish ta'limi ustasi kasbiy-pedagogik kompetentligining tarkibiy komponentlari**

Maxsus-texnologik kompetensiya – bu ishlab chiqarish ta'limi davrida texnologik ishlab chiqarish vazifalarini samarali va oqilona hal etish uchun ishlatiladigan maxsus kasbiy bilim, amaliy ko'nikma va zaruriy qobiliyatlar to'plamidir.

Shaxsiy-motivatsion kompetensiya – ishlab chiqarish ta'limi ustasi pedagogik faoliyatini amalga oshirish jarayonida qo'llaniladigan shaxsiy xususiyatlardir.

Tashkiliy kompetensiya – bu o'quv-ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirish, tashkillashtirish va nazorat qilish, maxsus xos pedagogik texnologiyalardan foydalanish qobiliyatidir.

Metodik kompetensiya – ishlab chiqarish ta'limi ustasining o'quvchilar bilan birgalikdagi o'quv-ishlab chiqarish faoliyatini olib borish usullarini tanlashdagi bilim va ko'nikmalar.

Raqamli kompetensiya – bu ishlab chiqarish ta'limi ustasining o'quv-ishlab chiqarish faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, shuningdek, raqamli texnologiyalardan foydalangan holda kasbiy muammolarni hal qilish qobiliyatidir.

Ijtimoiy-psixologik kompetensiya – ishlab chiqarish ta'limi ustasining o'quvchilar va ularning ota-onalari hamda ijtimoiy hamkorlar jamoasi o'rtasida kommunikativ aloqalarni o'rnatish ko'nikmalari va qobiliyatlari.


Kasbiy kompetentlikni takomillashtirish jarayoni o'zlashtirish bilan tavsiflanadi, ish faoliyati davomida rivojlanib boradi, "Hayot davomida" o'zlashtiriladi. Professional ta'lim muassasasida ishlab chiqarish ta'lim ustasining

muntazam malakasini oshirib borish yuqori darajadagi kompetentlikka erishishni ob'ektiv ravishda ta'minlaydi.

Dissertatsiyaning **“Professional ta'lim muassasasida ishlab chiqarish ta'limi ustalarining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirishni tashkil etish va amalga oshirish metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida professional ta'lim muassasasida ishlab chiqarish ta'limi ustalarining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirishning mazmuni, ta'lim muassasasi sharoitida ishlab chiqarish ta'limi ustalarining malakasini oshirish muhitining tavsifi va kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish modeli, ustalarning kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirishning didaktik ta'minoti va metodikasini takomillashtirish masalalari yoritib berilgan.

Professional ta'lim muassasalari bozor iqtisodiyoti raqobati sharoitida ishlab chiqarish ta'limi ustalarining kasbiy-pedagogik kompetentligini takomillashtirishga jiddiy e'tibor berishga majbur bo'lmoqda. Ishlab chiqarish ta'limi ustasining pedagog sifatida roli ishlab chiqarish amaliyotlarini tashkil qilish jarayoni boshlanishi bilan o'quvchilar tarkibining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib turli vazifalarga bo'linib murakkablashib boradi.

Ishlab chiqarish ta'limi ustasi o'z faoliyatini amalga oshiradigan ta'lim muhitining barcha sharoitlari va elementlarining ko'p qirrali kompleks kombinatsiyasi va rivojlanishini tizimlashtirish va boshqarish uchun mas'ul hisoblanadi. Ta'lim muhitining faoliyati va unda ishlab chiqarish ta'limi ustalari faoliyati natijalarini doimiy tahlil qilish muhitning muayyan tarkibiy qismlarini mustahkamlash imkoniyatini yaratadi. Bu har doim pedagoglarning kasbiy sifatleri, umuman ta'lim jarayonining o'zgarishiga olib keladi.




## 2-rasm. Ishlab chiqarish ta'limi ustalarining ta'lim muhiti tavsifi

Ishlab chiqarish ta'limi ustasining kasbiy faoliyatida ta'lim muhiti – mehnat funksiyalarining faoliyati mazmunini belgilaydigan va bajarilishini belgilaydigan shartlar majmui, ijtimoiy-mehnat muhitini anglatadi. Ta'lim muhiti tushunchasi katta hajmli bo'lib, pedagogik muhitga nisbatan nafaqat usta va o'quvchilarning o'zaro munosabatlarini, balki ta'lim faoliyatining barcha subyektlari va obyektlari bilan o'zaro ta'sirini ham o'z ichiga oladi (2-rasm).


Malaka oshirish, yanada aniq va mazmunli jarayon sifatida, tinglovchilar ta'limining sifat va samaradorligini oshirishga qaratilgan. Pedagog o'z tayyorgarlik darajasining yuqori bo'lishi bu har doim o'quvchilarning tayyorgarlik darajasida ijobiy o'zgarishlarga olib kelishi kerak. Kasbiy-pedagogik kompetentlikni takomillashtirish pedagogning o'ziga, uning kasbiy xususiyatlarini sifat jihatdan yaxshilashga qaratilgan.

Malaka oshirish kurslarining dasturlari pedagog-kadrlar malakasini oshirish institutlarining pedagoglari tomonidan shakllantiriladi va pedagoglarga o'quv jarayonida foydalanish uchun ommalashtiriladi. Pedagoglarning kasbiy-pedagogik kompetentligini takomillashtirish dasturlari, ishlab chiqarish ta'limi ustalari, professional ta'lim muassasasining o'zi tomonidan pedagogik qiyinchiliklarni aniqlash va kasbiy so'rovlarni shakllantirish asosida ishlab chiqiladi.



**3-rasm. Ishlab chiqarish ta'limi ustasining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish jarayonining tashkiliy-metodik ta'minoti**

Biz bu o'rinda, ishlab chiqarish ta'limi ustasining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish jarayonining tashkiliy-metodik ta'minotining tarkibiy qismlarini aniqlab oldik. Ushbu jarayon, o'z navbatida, tashkiliy va metodik ta'minotni o'z ichiga oladi (3-rasm).



**4-rasm. Professional ta'lim muassasasida ishlab chiqarish ta'limi ustalarining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish modeli**

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan, professional ta'lim muassasasida ishlab chiqarish ta'limi ustalarining kasbiy-pedagogik kompetentligini takomillashtirish jarayonlarining qiyosiy xususiyatlarini tahlil qilish ta'lim muassasasida ishlab chiqarish ta'limi ustasining kasbiy-pedagogik kompetentligini takomillashtirish modelini ishlab chiqishga imkon berdi (4-rasm).

Biz tomonimizdan yaratilgan model akmeologik, fasilitatsiya, vazifalarni murakkablashtirish, ijtimoiy maqsadga muvofiqlik, kreativlik tamoyillariga asoslanadi. Shuningdek, professional ta'lim muassasasida ishlab chiqarish ta'limi ustalarining kasbiy-pedagogik kompetentligini takomillashtirishning ishlab chiqilgan modeli axborotli, rivojlantiruvchi, innovatsion, namoyishli funksiyalarni bajaradi.

Kasbiy-pedagogik kompetentlikni takomillashtirish jarayoni modelining tarkibiy qismlaridan biri bu monitoring natijalari asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilishdir, bu bizga ishlab chiqarish ta'limi ustalari tarkibining kasbiy o'sishiga hissa qo'shadigan tadbirlarni tashkil etishda islohotlar kiritishga imkon beradi. Shuningdek, professional ta'lim muassasasi ma'muriyatining mavqei, uning barcha pedagoglar, ushbu holatda ishlab chiqarish ta'limi ustalarining doimiy ravishda malakasini oshirib borishga qiziqishi, albatta, muhimdir. Boshqaruvning samaradorligi, qabul qilingan qarorlarning sifat va mazmuni ta'lim muassasasini rivojlantirishning asosiy strategik yo'nalishlarini tanlashga, ustuvor yo'nalishlarni belgilashga, xatolarga yo'l qo'ymaslikka, ta'lim faoliyatida, shu jumladan, o'quv-ishlab chiqarish jarayonida vujudga keladigan muammolarni o'z vaqtida hal qilishga yordam beradi.

Professional ta'lim muassasasida ishlab chiqarish ta'limi ustalarini kasbiy-pedagogik kompetentligini mahorat darslari (master-class) orqali rivojlantirishda quyidagi metodlardan foydalanish yuqori samara beradi. Bularga: "Pindocs" va "Rolli o'rin" metodlari, ishbilarmonlik va rolli o'yinlar, loyiha, flipped classroom va boshqa metodlarni keltirish mumkin.

Pindocs – raqamli ta'lim muhitida ishlab chiqarish ta'limi ustalarini o'qitishda pedagogik jarayonni loyihalashtirish, online document asosida ustalarning kognitiv bilimlarini rivojlantirishda innovatsion va axborot texnologiyalaridan foydalanishning samarali texnologik-metodik to'ldiruvchisi hisoblanadi.


"Rolli o'rin" metodi ishlab chiqarish ta'limi ustalari mavzu mohiyatini o'zlari mustaqil his etib to'liq tushunishlari uchun qo'l keladi. Bunda, ustalar rol ko'rinishida mansab egasi yoki mas'ul javobgar shaxs – ish o'rni egasi sifatida ishtirok etishadi. Lavozim vazifasida belgilangan vazifalarni boshqa ustalar oldida bajarib yoki namoyish qilib ko'rsatib beradilar. Ushbu metodning ayrim jihatlari rolli o'yinni eslatsa, bunda asosiy farqi ijro etuvchi stuli bilan farqlanadi. Ayrim tomondan simulyatsion yoki immitatsion ta'lim metodlariga ham haqiqiy holatning boshqacha ko'rinishi sifatida yaqin keladi. Rolli o'rin orqali bajariladigan har qanday ishtirokni aniq lavozim egasi stul (kreslo), mansab lavozimi javobgarligi doirasida hal etishda qo'llaniladi.

Professional ta'lim muassasasida ishlab chiqarish ta'limi ustalarining mahorat mashg'ulotlarida ta'limni tashkil etishning bir nechta turlaridan foydalanish mumkin, lekin o'tkazilgan tajribalar ta'limning "juft-juft bo'lib ishlash" va "guruhlarda ishlash" kabi tashkiliy shakllari yaxshi samara berishini ko'rsatdi.

Professional ta'lim muassasalarida ishlab chiqarish ta'limi ustasining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish vazifasini muvaffaqiyatli hal qilishning

shartlaridan biri – ichki o‘qitish tizimidir. Ichki o‘qitish tizimli ravishda uzluksiz va izchil amalga oshirilishi kerak. Buning uchun ichki o‘qitish tizimi yo‘lga qo‘yiladi. Ushbu o‘qitish tizimi o‘quv yili 40 haftani tashkil qilganligini inobatga olinib, kasbiy mahorat soatlari sifatida haftasiga bir marotaba 2 soatdan jami 80 soat, ya’ni 40 ta nazariy mavzuni o‘z ichiga oladi. O‘qitish jarayoni rahbariyat hodimlari, tashabbuskor va tajribali o‘qituvchilardan tashkil etilgan uslubiy birlashma tomonidan tashkil etiladi. Mashg‘ulot mavzular rejasi va uning didaktik ta‘minoti masofaviy platformaga joylashtiriladi va kurs dasturiga asosan tegishincha biriktirilgan mas‘ullar vositasida amalga oshiriladi. Ushbu tizimni amalga oshirish bo‘yicha ichki o‘qitish to‘g‘risida nizom ishlab chiqiladi va unda har bir tashkil qiluvchi va ishtirokchilarning vazifalari belgilab qo‘yiladi.

Bunda o‘qitish tizimi, asosan, tyutor tomonidan tashkil qilinadi va uning nazorati ham ular tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu tizim va uning ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabat, bir tomonlama, topshiriqlarni berilishi va qaytar aloqa tizimining umumiy sxemasi 5-rasmda tasvirlangan.



**5-rasm. Ishlab chiqarish ta‘limi ustalarini ish joyida masofaviy platforma yordamida o‘qitish tizimi**

